


## O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-sentabr)

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasida jami **50 922,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **119,3** %ni tashkil etdi.



Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **12 410,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **4,5 %**ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **3,3 %** punktga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,3 %**i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,2 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **131,7 %**ni tashkil etgan holda **27 646,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,9 %** punktga kamayib, **21,3 %**ni tashkil etdi va **10 865,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **110,9 %**ni tashkil etgani kuzatildi.

### **Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari**

*2019 yil (yanvar-sentabr)*

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **3 150,8** mlrd.so'm yoki 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan **154,7%** qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **47 771,4** mlrd.so'm ishlar bajarilib, o'sish sur'ati **117,6 %**ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **6,2 %** va **93,8 %**ni tashkil etdi.

**6,2%**


Davlat mulki



**93,8%**



Nodavlat mulki

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **76,2 %**i yoki **38 788,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **10 956,5** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **88,3 %** tashkil etdi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan **18 267,0** mlrd. so'm, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **66,1 %** yangi qurilish ishlari bo'yicha ishlar bajarildi.

Norasmiy sektor hissasiga **9 564,8** mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **88,0 %** yangi qurilish bo'yicha ishlar bajarildi.



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


(o'tgan yilning shu davriga nisbatan %da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan ulushi %da)



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **21,8 %**ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,7 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,1 %** punktga ko'payib, **49,2 %** ni tashkil etdi.

### Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)




Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,4 %** punktga kamayib, **29,0 %**ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **44,3 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,1 %** punktga ko'paydi.

### Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


(jamiga nisbatan %da)



Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **55,5 %** (**3,8 %** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **0,2 %**ni (**3,3 %** punktga kamayish) tashkil etdi

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamaydi va **18,7 %**ni tashkil etdi. Qolgan **81,3 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-sentabr)

(mlrd.so'm)


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		binolar va inshootlar qurilishi	fuqarolik qurilish ob'ektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
O'zbekiston Respublikasi*	50922,2	37347,7	6770,9	6803,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2514,3	1682,4	359,1	472,8
viloyatlar:				
Andijon	2742,6	2004,6	254,0	484,0
Buxoro	3291,9	2275,6	523,7	492,6
Jizzax	1634,4	1266,7	219,4	148,3
Qashqadaryo	3332,3	2452,4	410,5	469,4
Navoiy	2531,5	1789,9	301,8	439,8
Namangan	2384,2	1713,3	219,4	451,5
Samarqand	3207,6	2480,7	304,9	422,0
Surxondaryo	2942,6	2008,0	769,9	164,7
Sirdaryo	1100,7	800,6	187,5	112,6
Toshkent	3328,7	2416,0	402,8	509,9
Farg'ona	3147,2	2386,4	400,4	360,4
Xorazm	1945,7	1560,5	261,7	123,5
Toshkent sh.	11294,5	6986,6	2155,8	2152,1

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda



## Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan %da)



## Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-sentabr)

(mlrd.so'm)

	<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan, foizda</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi*</b>	<b>50 922,2</b>	<b>119,3</b>	<b>38 788,2</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 514,3</b>	<b>128,0</b>	<b>1 802,5</b>
<b>viloyatlar:</b>			
<b>Andijon</b>	<b>2 742,6</b>	<b>107,5</b>	<b>1 868,3</b>
<b>Buxoro</b>	<b>3 291,9</b>	<b>117,5</b>	<b>1 939,9</b>
<b>Jizzax</b>	<b>1 634,4</b>	<b>124,8</b>	<b>1 290,3</b>
<b>Qashqadaryo</b>	<b>3 332,3</b>	<b>112,5</b>	<b>2 416,0</b>
<b>Navoiy</b>	<b>2 531,5</b>	<b>132,6</b>	<b>1 916,3</b>
<b>Namangan</b>	<b>2 384,2</b>	<b>135,8</b>	<b>1 747,2</b>
<b>Samarqand</b>	<b>3 207,6</b>	<b>125,7</b>	<b>2 537,5</b>
<b>Surxondaryo</b>	<b>2 942,6</b>	<b>123,0</b>	<b>2 488,5</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>1 100,7</b>	<b>124,6</b>	<b>734,0</b>
<b>Toshkent</b>	<b>3 328,7</b>	<b>141,5</b>	<b>2 479,9</b>
<b>Farg'ona</b>	<b>3 147,2</b>	<b>125,7</b>	<b>2 160,6</b>
<b>Xorazm</b>	<b>1 945,7</b>	<b>123,1</b>	<b>1 604,9</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>11 294,5</b>	<b>132,0</b>	<b>8 278,3</b>

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

## Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari

---

### **Toshkent viloyati (141,5 %):**

- Toshkent viloyati Qibray tumani namunaviy yo'llarini rekonstruksiya qilish ishlari;
- Toshkent viloyatida Toshkent shahrining Bektemir tumanidan Bo'stonliq tumani yo'nalishidagi yo'llarni ta'mirlash ishlari;
- Kollektorlarni ta'mirlash va tiklash ishlari;
- Irrigatsiya tizimi suvini tezligini so'ndiruvchi inshootlar qurish.

### **Namangan viloyati (135,8 %):**

- - Namangan shahrining Uychi va Yangiobod ko'chalarida ta'mirlash ishlari olib borilmoqda;
- - Viloyatning barcha tuman va shaharlarida yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari qurilmoqda.

### **Navoiy viloyati (132,6 %):**

- "Ko'kpatas " va "Daugiztau" konlarining og'ir rudalaridan oltin qazib olish texnologiyasini takomillashtirish, "Auminzo-Amantay" oltin ma'danlari koni (5-GMZ) qurilishi (I-II bosqich), "Amudaryo-Zarafshon" suv yo'lining 3 - yo'nalishi bo'yicha nasos stansiyasi rekonstruksiyasi;
- "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" M-37 avtomobil yo'lini ta'mirlash;
- Karmana, Xatirchi, Navbahor, Qiziltepa tumanlarida kanallar, drenajlar va kollektorlar qazish ishlari.

### **Toshkent shahri (132,0 %):**

- Ko'prik va "Yunusobod" metro liniyasi qurilishi, elektr poyezdlar uchun halqa temir yo'l qurilishi, shuningdek, "Angren - Pop" temir yo'l liniyasi atroflarini to'sish;
- Toshkent metropolitenining Sergeli liniyasi qurilishi, Maxtumquli (Taraqqiyot) ko'chalari va Ohangaron yo'li kesishmasida yo'l o'tkazgich

qurilishi, yer usti halqa liniyasini qurish ishlari amalga oshirildi;

- "Toshkent city" va "Olmazor city" lar qurilishi;
- Sobiq Toshkent chinni zavodi hududida "Yangi Olmazor" turar-joy majmuasi qurilishi;
- "Oloy" turar-joy binosi qurilishi.
- "Toshkent - Sharqiy" aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aeroporti majmuasi qurilishi;
- "Navro`z" bog`i qurilishi;
- "O`zbekfilm" bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish;
- Xalqaro Islom madaniyati markazi qurilishi.

#### **Qoraqalpog'iston Respublikasi (128,0 %):**

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 yanvardagi 37-son qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari;

- TQVZ texnogen ajratmalarini qayta ishlash kompleksi qurilishining 1-2 bosqichi. KP 73 dan TQVZ gacha bo'lgan texnologik quvurlarning ichki tarmoqlaridagi suv quvurlarini qurish;

- Xo`jayli va Qo'ng'iro't tumanlarida kollektorlarini qazish , "Hayranli" va "Hatep" kanallarini rekonstruksiya qilish;

- Ellikqal'a tumanida "KT-1", "K-5", "Akchaku", "KT-3", "K-4", "K-11", "Guliston", "K-1 Shortanbay" kollektorlari, shuningdek, Nukus tumanida "Kerdar" kanalini ta'mirlash - tiklash ishlari bo'yicha katta hajmdagi qurilish ishlari bajarildi.

#### **Farg'ona viloyati (125,7 %):**

- Qo'qon shahrida "Hunarmandlar festivali" ga tayorgarlik doirasidagi qurilish ta'mirlash ishlari, shahar ko'chalari yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari;


- Yozyovon, Qo'shtepa, So'x va Beshariq tumanlarida beton

kanallarini qurish ishlari shuningdek, Beshariq, O'zbekiston, Rishton, Oltiariq, Buvayda hamda Uchko'prik tumanlarida zovurlarni tozalash va meleoratsiya ishlari amalga oshirilmoqda;

- Beshariq tumanida sement zavodini qurish ishlari.

### Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan ulushi %da)



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng kam ulushi Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,5 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **122,2 %**), Jizzax (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,2 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **108,5 %**) va Andijon viloyatlarida



(hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,5%**, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **118,4 %**) kuzatildi.

**O'zbekiston Respublikasi  
Davlat statistika qo'mitasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

**J.Saipov**

Aloqa telefoni:

**(71) 230-80-56**